

Date: 29<sup>th</sup> December-2025

**TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING  
O'RNI**

NamDU Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

**Qarabayev Jamshid Rustamovich**

NamDU Fizika-matematika fakulteti,

matematika yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

**Abdujalilova Kamolaxon Abduvohidjon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning o'quv jarayoniga ta'siri, zamonaviy dars samaradorligini oshirishdagi roli keng yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va raqamli ta'lim platformalarining afzalliklari ilmiy-tahliliy tarzda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Innovasion texnologiyalar, interfaol metodlar, AKT, raqamli ta'lim, o'qitish samaradorligi

**Annotation:** This article provides a comprehensive overview of the role of innovative technologies in the educational process. It analyzes how interactive methods, information and communication technologies (ICT), and digital learning platforms enhance students' learning outcomes and improve the effectiveness of teaching.

**Keywords:** Innovative technologies, interactive methods, ICT, digital education, teaching effectiveness

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматривается роль инновационных технологий в образовательном процессе. Анализируется влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и цифровых образовательных платформ на повышение эффективности обучения.

**Ключевые слова:** Инновационные технологии, интерактивные методы, ИКТ, цифровое обучение, эффективность преподавания

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida yangi talablar paydo bo'lmoqda. Axborot oqimlarining keskin ko'payishi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, zamonaviy bilim va ko'nikmalar to'plamining o'zgarishi o'quv jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shuning uchun ta'lim jarayonida innovasion texnologiyalarni qo'llash o'qitish samaradorligini oshirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Innovasion yondashuvlar nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy tahlil, amaliy faoliyat kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovasion texnologiyalarning mohiyati. Innovasion ta'lim texnologiyalari — bu ta'lim jarayoniga yangi metod, vosita, AKT tizimlari, interfaol yondashuvlarni joriy etishorqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini sifat jihatidan takomillashtirishni maqsad qilgan texnologiyalardir. Ular quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:



Date: 29<sup>th</sup> December-2025

O'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi, mustaqil ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi, motivatsiyani oshiradi, darsning samaradorligini kuchaytiradi.

Interfaol metodlarning o'ri. Interfaol metodlar zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etadi. Ularga:

“Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti”, “Bumerang”, “Debat” Guruhlar bilan ishlash metodi kabi usullar kiradi. Bu metodlar orqali o'quvchilar:

o'z fikrlarini erkin bayon qiladi, tahlil va solishtirish ko'nikmalariga ega bo'ladi, muloqot va hamkorlik madaniyatini o'zlashtiradi. Interfaol metodlar darsni jonlantirib, qiziqarli va samarali qiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning ahamiyati . AKT ta'limning raqamli transformatsiyasida asosiy omil sanaladi. Bugungi kunda: kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalari, elektron darsliklar, videodarslar, internet resurslari, virtual laboratoriyalar, o'quv jarayonini sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qilmoqda.

AKTning afzalliklari: murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish imkoniyati, o'quv jarayonini individuallashtirish, istalgan vaqt va joyda o'rganish imkoniyati bilimlarni mustahkamlash uchun interfaol testlar yaratish. Raqamli ta'lim platformalarining ro'li. Bugungi kunda ta'limda Google Classroom, Moodle, Duolingo, Khan Academy, Coursera, Edmodo kabi platformalar keng qo'llanilmoqda.

Raqamli platformalarning afzalliklari: o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida tezkor aloqani ta'minlaydi, barcha dars materiallarini bir joyda saqlaydi, mustaqil ta'limni samarali tashkil etadi, testlar, topshiriqlar, dars jadvallari bilan ishlashni osonlashtiradi.

Innovation texnologiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri. Innovation texnologiyalar: o'quvchilar bilimining chuqurlashuviga, darslarga qiziqishning kuchayishiga, mustaqil fikrlashning shakllanishiga, kreativ yondashuvning rivojlanishiga, axborot madaniyatining oshishiga, katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirib, pedagogik jarayonning sifatini yaxshilaydi.

O'quvchilarda mustaqil fikrlash va kreativlikni rivojlantirish . Innovation texnologiyalar o'quvchilarga quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi: mustaqil tahlil qilish, kreativ yechimlar taklif qilish, o'z fikrini asoslash, jamoada ishlash, nutq madaniyati, axborotni qayta ishlash. Bu esa ularni kelajakda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, innovation texnologiyalar bugungi ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ular o'quv jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. tizimida innovation yondashuvlarning keng qo'llanishi jamiyatning intellektual salohiyati, ta'lim sifatining oshishi va raqobatbardosh kadrlarning yetishib chiqishiga xizmat qiladi.



Date: 29<sup>th</sup> December-2025

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasiga oid farmon va qarorlari.
2. Hasanboyev J. “Pedagogika asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020
3. To‘raqulov N., Musurmonova O. “Innovation pedagogika”. – Toshkent, 2021.
4. Xalqaro raqamli ta’lim platformalari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar.
5. Yevropa pedagogik innovasiyalar markazi hisobotlari, 2023.
6. Rustamovich, Q. J. "MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 22.4 (2023): 115-117.
7. Qarabayev J. R. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI //Inter education & global study. – 2024. – №. 5 (1). – С. 450-455.

